



## O‘ZINI O‘ZI O‘LDIRISH DARAJASIGA YETKAZISH TUSHUNCHASI, O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Qalqonov Ruzibek Baxtiyor o‘g‘li**

*Toshkent davlat yuridik univertiteti “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti”  
yo‘nalishi magistratura talabasi*

[ruzibek18@gmail.com](mailto:ruzibek18@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyatlarida uchun muhim ahamiyatli hisoblangan o‘zini o‘zi o‘ldirish, o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish tushunchasi turli olimlar fikrlarini keltirilgan holda muhokama qilinadi hamda ushbu turdagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari O‘zbekiston Jinoyat qonunchiligi normalari tahlil qilingan holda muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zini o‘zi o‘ldirish (suitsid), o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish, o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash, shaxsga qarshi jinoyatlar, suiqasd, hara-kiri, sati, rahmsiz muamala, qo‘rqitish, shaxsning sha‘ni va qadr qimmatini muttasil ravishda kamsitish.

**Аннотация:** в данной статье рассматривается понятие самоубийства, покушения на самоубийство, которое считается важным для суицидальных преступлений, с приведением мнений различных ученых, а также анализируются специфические признаки данного вида преступления путем анализа норм уголовного права. Узбекистана.

**Ключевые слова:** суицид, доведение до самоубийства, преступления против личности, покушение, харакири, сати, беспощадное обращение, запугивание, постоянное унижение достоинства и ценности человека.

**Abstract:** in this article, the concept of suicide, attempted suicide, which is considered important for crimes of suicide, is discussed, citing the opinions of various scientists, and specific features of this type of crime are discussed by analyzing the norms of criminal law of Uzbekistan.

**Key words:** suicide, suicide, incitement to suicide, crimes against the person, assassination, hara-kiri, sati, merciless treatment, intimidation, continuous humiliation of a person's dignity and worth.

Bugungi kunda O‘zbekistonda norma ijodkorligi faoliyati sifatini oshirish, xususan jinoyat kodeksi, jinoyat prosessual kodeksi va jinoyat ijroya kodeksini rivojlantirish ya‘ni tubdan qayta ishlab chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son asosida bir qator izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Sodir qilinadigan jinoyatlar ichida eng xavfli jinoyatlar sifatida inson hayotiga qarshi jinoyatlarni ko‘rsatishimi o‘rinlidir. Ushbu turdagi jinoyatlar Jinoyat kodeksining (bundan keyingi o‘rinlarda JK) Maxsus qismi birinchi bo‘limi “Shaxsga qarshi jinoyatlar” bilan tartibga solingan bo‘lib, ular qatorida “o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish” jinoyati (JKning 103-moddasi) ham bor. Unga ko‘ra, shaxsni qo‘rqitish, unga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha‘ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilishi jinoyat sifatida belgilab qo‘yilgan.

Demak, “o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish” jinoyatini tadqiq etarkanmiz, avvalo, “o‘zini o‘zi o‘ldirish” tushunchasi aniqlik kiritib olish zaruriyati paydo bo‘ladi. Shu o‘rinda xorijiy adabiyotlarda “o‘zini o‘zi o‘ldirish” sifatida keng qo‘llaniladigan atama bu — “suitsid” (inglicha “suicide” - “o‘zini o‘zi



o‘ldirish”<sup>30</sup>dir.

Milliy olimlarimizda bu tushunchaga oid turli fikrlar mavjud. Jumladan, S.Niyozova “suitsid” tushunchasiga quyidagicha – “ongli ravishda o‘zini o‘zi o‘ldirish”<sup>31</sup> ta’rif berib o‘tadi. Ushbu ta’rifga asosan o‘zini o‘zi o‘ldirishga harakat qilgan har qanday shaxs o‘z harakatini ongli ravishda anglagan holda harakat qiladi.

Shamshetova A.K esa “suitsid” – ongli tarzda insonning hayotdan olgan o‘tkir ruhiy jarohatlar ta’sirida, o‘z hayoti haqidagi o‘y-hayolni yo‘qotish, o‘zini o‘zi o‘ldirish – aktiv jamiyatda yashashni ijtimoiy – passiv tarzda rad etishning oxirgi belgisi sifatida e’tirof etadi<sup>32</sup>. Berilgan ta’rifga ko‘ra shuni aytish mumkinki, shaxsning kuchli ruhiy ta’sir natijasida ya’ni ruhiy ezilishi, qiynoq, azoblanish shu kabi ruhiy hissiyotlar natijasida shaxs o‘zini o‘zi o‘ldirishga harakat qiladi va bu uning uchun ushbu sabablardan qutilishining asosiy yo‘li sifatida biladi.

Arzikulov U.M fikricha, suitsid – insonning ongli ravishda o‘zini o‘ldirish istagi sifatida, u orqali - ruhiy jarohatlarni o‘zgartirishga, ya’ni ulardan qutulish uchun o‘z ixtiyori bilan o‘lishga qaratilgan harakatdir<sup>33</sup>.

Xorijiy olimlarning fikrlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Antoon A. Leenaars o‘zining “Suitsid va inson huquqlari” (“Suicide and Human Rights”) maqolasida “suitsid” so‘zining qo‘llanilishga doir bir qancha taxminlarini ham keltirib o‘tadi. Ulardan birinchisi, Oksford inglizcha lug‘atiga ko‘ra, Uolter Charleton bu so‘zni birinchi marta 1651-yildabu so‘zga: “O‘z joniga qasd qilish orqali inson o‘zini muqarrar ofatdan xalos qilishi jinoyat emas”<sup>34</sup> degan ma’noda qo‘llab o‘tgan.

Biroq boshqa uning bu so‘zni birinchi foydalanganligiga shubha ostiga oluvchi boshqa manbalar ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, ba’zi olimlarning fikricha, ser Tomas Braun bu so‘zni birinchi marta 1642-yilda nashr etilgan “Religio Medici” kitobida ishlatgan<sup>35</sup>.

Edvard Filipsning 1662-yilda nashrdan chiqqan “So‘zlarning yangi dunyosi” (A New World of Words) asarida ushbu atamani izoh berib ketilgan. Unga ko‘ra, “suitsid” xalq tilida keng foydalanishga qadar ushbu so‘z o‘rinida *self-destruction*, *self-killing*, *self-murder*, and *self-slaughter* kabi atamalar qo‘llanilgan.

Biroq shunday bo‘lsada, “suitsid” (“o‘z joniga qasd qilish”) atamasi birinchi marta ilmiy atama sifatida 1947-yilda italiyalik psixolog G.Deze tomonidan kiritilgan bo‘lib, “o‘z joniga qasd qilish niyatidagi harakat” degan ma’noni anglatadi.

Bu bilan ushbu turdagi jinoyatlarni alohida o‘rganish bir qancha amaliyot oshib bordi. Ayniqsa, XX asrga kelib bu borada ilmiy izlanishlar soni ancha miqdorda oshdi. Bunga sabab sifatida so‘ngi bir asr davomida o‘z joniga qasd qiluvchilar soni doimiy ravishda oshib borishdir<sup>36</sup>.

Amerikalik olim Richard Volfrom suitsid deyilganda – umumiy huquqqa asoslangan holda ongli tarzida va jismoniy harakat natijasida sodir etilgan jinoyatdir<sup>37</sup>, deb tushunilishini ta’kidlab o‘tadi. Bundan tushunish mumkinki, o‘z joniga qasd qilyotgan odam harakatida ham jismoniy, ham ongli harakat bo‘lishi

<sup>30</sup> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/suicide>

<sup>31</sup> S.S.Niyozva. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va o‘zini o‘zi o‘ldirishga undaganlikning jinoyiy-huquqiy va kriminologik jihatlari. Monografiya. Toshkent – 2020, 8-bet.

<sup>32</sup> Shamshetova A.K., Suletbayeva E.C., Erjanova M.K. Ta’lim muassasalarida suitsidning psixoprofilaktik chora-tadbirlarini tashkil etish (profilaktika, diagnostika, korreksiya). – Nukus., 2015 – 25 b.

<sup>33</sup> “Some Concepts about Suicide” the European Journal of Innovation in Nonformal Education – 2021 – page 72.

<sup>34</sup> Compact Oxford English Dictionary, 2nd ed. (Oxford: Clarendon Press, 1998), p. 1956.

<sup>35</sup> T. Browne (Sir Thomas, 1605-1682), Religio Medici 4th ed. (London: printed by E. Cotes for Andrew Crook, 1656).

<sup>36</sup> <https://ourworldindata.org/suicide#>

<sup>37</sup> Richard Wolfrom, The Criminal Aspect of Suicide, 39 DICK. L. REV. 42 (1934).



zaruriyat hisoblanadi.

Suitsid – insonning o‘z joniga qasd qilish harakatidir va u kasallik, biologik ruhiy buzilish, axloqsizlik emas hamda ko‘pchilik davlatlar bu jinoyat hisoblanmaydi<sup>38</sup>.

Ma‘lumki, biror bir qarash yoki nazariya insonning o‘zini o‘zi yo‘q qilish kabi murakkab xatti-harakatlarni aniqlay olishi yoki tushuntirib berishi dargumon. Shu sababdan ham turli huquqshunos olimlar turli fikrlar bildirib o‘tadilar.

Ervin Ringel (Avstriya) u o‘z joniga qasd qilish (suitsid)ga quyidagicha ta‘rif berib o‘tadi: Suitsid — bu insonning joniga qasd qilish istagidagi tendensiyadir.

“Suitsid - bu ruhiy kasallik natijasida (bunday kasalliklar har doim ham shaxsning bunday harakat qilishga undamaydi hamda ular undan jabr chekmaydi) yoki qasddan o‘z joniga qasd qilish yoxud har qanday ruhiy kasallikning bir qismi bo‘lmagan holda, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasida yetish yoki yetkazishga sabab bo‘luvchi turli xil motivatsiyalar natijasidagi harakatidir” — degan fikr bildirib o‘tadi, – Charles Bagg (Angliya)<sup>39</sup>.

Valter Xurst (Yangi Zelandiya) quyidagichi fikr yuritadi: “O‘z joniga qasd qilish qaroriga ko‘pincha o‘lim istagidan ko‘ra yashashni to‘xtatish ichki istagi sabab bo‘ladi. O‘z joniga qasd qilish - bu yolg‘iz hal qilish uchun juda qiyin bo‘lib tuyuladigan muammoga duch kelishning qat‘iy alternativ yechimidir.

Bu turdagi jinoyatlarni xarakteri har doim jamiyat hayotiga bog‘liq tarzida o‘zgarib bormoqda. Chunki o‘zini o‘zi o‘ldirish inson hayotidagi muammosi uchun yagona yechim sifatida qaraladi va har doim huquq sohasida eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etiladigan inson hayotiga tahdid qiladi. Shu sababdan ham har yili global xarakterga ega bo‘lgan bunday turdagi jinoyatlarga bo‘lgan sabablar butun dunyo miqyosida tahlil qilib boriladi.

O‘zini o‘zi o‘ldirish jinoyati dunyo miqyosida ko‘p holatda sodir bo‘lgan bir jinoyatdir. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda dunyo miqyosida o‘zini o‘zi o‘ldirish natijasida 800 000 dan ortiq kishi vafot etgan. Bu jinoyatlarning sabablari va ta‘siri ko‘proq tahlil qilinishi kerak.

Jinoyatni sodir etgan kishilarning profilaktikasi va ularning qayta integratsiyasi ham jinoyatni oldirishni oldindan qayta to‘xtatish uchun juda muhimdir. Bu mavzuga oid qonunlar va qarorlar ham mavjud. Misol uchun, bir nechta davlatlarda o‘zini o‘zi o‘ldirish jarayoniga qatnashgan kishilar uchun psixologik yordam ko‘rsatiladi. Shuningdek, ularning qayta integratsiyasi uchun ish yuritish, ta‘lim olish va boshqa imkoniyatlar ham mavjud.

Jazo va ta‘sir shakllari ham o‘zini o‘zi o‘ldirish jinoyatining oldini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkizgan shaxsga jazo yoki boshqa ta‘ir chorasining qo‘llanishi shu turdagi boshqa jinoyat sodir etilishini oldini olgan holda, boshqa kishilarga misol qilib ko‘rsatiladi. Bu shakllar jinoyatning qanday holatda sodir bo‘lishiga qarab belgilanadi.

Huquqshunos olimlar tomonidan suitsid quyidagi: sovuq suitsid – bunda shaxs haqiqatdan o‘lishini xohlaydi, ya‘ni yashashni istamaydi; hamda ikkinchisi, odamlarning e‘tiborini o‘ziga jalb qilishga qaratilgan suitsid – ushbu turdagi suitsid amalga oshirgan shaxslar o‘zlarini o‘ldirishga qilgan harakati oxirga yetmaydi va o‘zlarini o‘ldirish yakuniga qadar kimdir qo‘tqarib qolishiga ishonadi; uchinchi turi esa yagona yechim – o‘zini o‘zi o‘ldirish barcha muammolardan qutilishining yagona yo‘li sifatida qaraladi.

O‘zini o‘zi o‘ldirish haqida dunyo dinlarida ushbu tushunchaga alohida e‘tibor berilgan. Dunyo dinlarida o‘zini o‘zi qurbonlik qilish degan tushuncha mavjud bo‘lib, bu ko‘roq diniy mafkuralar bilan bog‘liq hisoblanadi. Ushbu mafkuralarga binoan shaxslar o‘z jonlarini vatani, oilasi yoki dini manfaatlari

<sup>38</sup> E. Shneidman, “Suicide” Encyclopedia Britannica, vol. 21 (Chicago, IL: Williams Benton, 1973), pp. 383-385.

<sup>39</sup> Philippe Courtet (ed.), Understanding Suicide From Diagnosis to Personalised Treatment (Springer, 2016)4.



uchun qurbonlik qiladi hamda bu bilan faxrli o'lim topgan bo'ladi<sup>40</sup>. Bunday ko'rinishdagi suitsidning ko'rinishlarini Yaponiyada "hara-kiri"<sup>41</sup> (shuningdek, "seppuku") va Hindistonda "sati"<sup>42</sup> (shuningdek, "sutte") kabi ko'rinishlarini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, qadimgi amerika xalqlari (mayya, astek, ink va boshqalar) diniy hayotida ham ma'lum holatlardan katta yoshdagi insonlarni shunidek, yosh bolalarning qurbonlik qilinganligini guvohi bo'lishimiz mumkin<sup>43</sup>.

Shuni ham aytib o'tish joizki, deyarli barcha dinlarda o'zini o'zi o'ldirish katta gunoh ekanligi ta'kidlab o'tiladi hamda o'zini o'zi o'ldiriganlar alohida qabristonlarga dafn etish odati mavjud. Jumladan, muqaddas islom dinimizga ko'ra, bundan shaxslarga janoza o'qilmaydi. Alloh Taolo Qur'oni karimning Niso surasi, 29-oyatda insonni o'zining yashash huquqiga tajovuz qilishini man etib: "O'zlariningizni o'zlarinigiz o'ldirimangiz" deb bandalarini ogohlantiradi" va yana "Alloh albatta sizlarga mehribondir", deb marhamat qiladi<sup>44</sup>.

Ushbu turdagi jinoyatlarni boshqa turdagi jinoyatlar xususan inson hayotiga qarshi jinoyatlarnindan farqi haqida gapiradigan bo'lsa avvalo ushbu turdagi jinoyatlarda jinoyat sodir etilishida jinoyatchi jinoyat sodir etishda o'zgacha xarakter kasb etadi hamda shu tufayli bunda turdagi jinoyatlar boshqa inson hayotiga qaratilgan jinoyatlarga nisbatan murakkablikka sabab bo'ladi. Bunday murakkablik odatda jinoyatchini aniqlashda yuzaga keladi. Chunki jinoyat sodir bo'lgan vaqtida jinoyatchining haqiqatda uning bunday jinoyat sodir etish niyati bor yo'qiligi aniqlash zarur hisoblandi. Chunki bu bevosita unga nisbatan sud tomonidan beriladigan jazo yoki surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi o'z vakolatlari doirasida jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va yetarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishi<sup>45</sup> uchun asos bo'ladi.

JKning Maxsus qismi birinchi bo'limi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan bo'lib, quyidagi o'ziga xos jihatlari bilan boshqa shu turdagi jinoyatlardan ajralib turadi.

Birinchiidan, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish ko'p hollarda latent jinoyatlar ko'rinishida sodir etilib, bu esa mamlakatimizda jinoyatchilik holatini baholash va uni oldini olish choralarinini ishlab chikilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmokda.

Ikkinchiidan, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish ko'p hollarda latent jinoyatlar ko'rinishida sodir etilib, bu esa mamlakatimizda jinoyatchilik holatini baholash va uni oldini olish choralarinini ishlab chiqilishiga qiyinchilik yuzaga keltiradi;

Uchinchiidan, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undaganlik jinoyatining obektiv va subektiv belgilarini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Biz tadqiq qilayotgan jinoyat moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, shaxsning o'zini o'zi o'ldirishi yoki uzini o'zi o'ldirishiga suiqasd qilish vaqtidan jinoyat tugallangan, deb hisoblanadi. Shuningdek, aybdorning xulq-atvori va yuz bergan oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish mavjudligini aniqlash zarur.

Shuningdek, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va o'zini o'zi oldirishga undash o'rtasida ham farqli jihatlar mavjud va ular JKning alohida-alohida moddalari bilan kivalifikatsiya qilinadi.

Demak, ular o'rtasidagi farqlari ko'rsatishda o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazganlik jinoyatining o'ziga xos xususiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

40 <https://ru.wikipedia.org/wiki/Самопожертвование>

41 <https://en.wikipedia.org/wiki/Seppuku>

42 [https://en.wikipedia.org/wiki/Sati\\_\(practice\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Sati_(practice))

43 [https://en.wikipedia.org/wiki/Sacrifice\\_in\\_Maya\\_culture#Child\\_sacrifice](https://en.wikipedia.org/wiki/Sacrifice_in_Maya_culture#Child_sacrifice)

44 <https://religions.uz/uz/news/detail?id=395>

45 Jinoyat prosessual kodeksi 321-moddasi



O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyati rahmsiz munosabatda bo‘lish yoki shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish yo‘li bilan sodir etiladigan o‘zini o‘zi o‘ldirish yoki o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilishga majbur bo‘lib o‘zida bu muammoli holatga yagona yechimni izlaydi. Natijada esa o‘zini o‘zi o‘ldiradi yoki unga suiqasd qiladi.

Bunga farqli ravishda o‘zini o‘zi o‘ldirishga undashda aybdor ko‘ndirish, aldash yoki insonning erkini sindiruvchi boshqa yo‘l bilan (masalan, tushkunlikka soluvchi g‘oyaviy tashviqot orqali) qasddan boshqa shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirishga harakat qilishga undaydi. Bunda shaxs odatda o‘zining harakatining oqibatini to‘liq anglay olmaydi hamda bunday holatda aybdorni aniqlash o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazganlik jinoyatiga nisbatan anchagina murakkab hisoblanadi.

Ushbu jinoyatlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati bu ularning subyektiv tomonida hisoblanadi. Bunda subyektiv tomondan o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyati egri qasd shaklida uning oqibatiga nisbatan esa ehtiyotsizlik bilan sodir etilsa, o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash jinoyatida esa faqat qasddan sodir etiladi. Aynan shu farqli jihati orqali tergov organlari ushbu jinoyatlarini farqlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar va tegishli JK moddasiga bilan jinoyat ishini qo‘zg‘atadilar.

O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyati sodir etilishi oqibatida qandaydir asoslarga ko‘ra inson o‘limi yuzaga chiqmagan hollarda aybdorning harakatini JLnning 25-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish shart hisoblanmaydi. Sababi ushbu turdagi jinoyatlar nafaqat o‘zini o‘zi o‘ldirish, shuningdek, o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish uchun ham javobgarlikni nazarda tutadi.

JK 103-moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir etilishi oqibatida qandaydir sabablarga ko‘ra inson o‘limi kelib chiqmagan hollarda aybdorning harakatini JK 25-moddasi bilan qo‘shimcha kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi, chunki JK 103-moddasi nafaqat o‘zini o‘zi o‘ldirish, balki, o‘zini o‘zi o‘ldirishga suiqasd qilish darajasiga etkazish uchun ham javobgarlikni nazarda tutadi.

Xuddi shuningdek, o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash jinoyati ham JKning 25-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi talab qilinmaydi. Chunki ushbu turdagi jinoyat boshlanish vaqti ushbu turdagi jinoyatining tugashi hisoblanadi.

Yuqoridagi kelitirib o‘tilgan o‘ziga xos xususiyatlari tufayli o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazganlik uchun jinoyat qonunchilikda ushbu turdagi jinoyatlarning ta’sirini baholash, ularga qarshi huquqiy profilaktikani amalga oshirishning yangi innovasion usullarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilishi zarur. Ushbu magistrlik dissertatsiyasida zero islohotlarni huquqiy ta’minlashda qonun hujjatlari ta’sirini baholash kabi uzviy, umumiy maqsadga qaratilgan murakkab, ayni paytda muhim faoliyat jamiyat va davlat hayotining eng dolzarb jabhasiga aylanadi<sup>46</sup>.

#### Foydalanilgan adaniyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, — 1994.
2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 3. Maxsus qism. Shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 412 bet. S.S.Niyozva. O‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va o‘zini o‘zi o‘ldirishga undaganlikning jinoyi-huquqiy va kriminologik jihatlar. Monografiya. Toshkent – 2020, 126-bet.
3. Shamshetova A.K., Suletbayeva E.C., Erjanova M.K. Ta’lim muassasalarida suitsidning

<sup>46</sup> Xusanova M.A. Qonunchilik tashabbusi huquqi: muammolar va yechimlar. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya. – T.: TDYUU, 2012. – 6 b



psixoprofilaktik chora-tadbirlarini tashkkil etish (profilaktika, diagnostika, korreksiya). – Nukus., 2015 – 25 b.

4. Xusanova M.A. Qonunchilik tashabbusi huquqi: muammolar va yechimlar. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertasiya. – T.: TDYUU, 2012.
5. “Some Concepts about Suicide” the European Journal of Innovation in Nonformal Education – 2021 – page 72.
6. Richard Wolfrom, The Criminal Aspect of Suicide, 39 DICK. L. REV. 42 (1934).
7. E. Shneidman, “Suicide” Encyclopedia Britannica, vol. 21 (Chicago, IL: Williams Benton, 1973), pp. 383-385.
8. Philippe Courtet (ed.), Understanding Suicide From Diagnosis to Personalised Treatment (Springer, 2016)4.
9. Compact Oxford English Dictionary, 2nd ed. (Oxford: Clarendon Press, 1998), p. 1956.